

NASRIY VA NAZMIY ASARLARDA FRAZELOGIK BIRLIKLARNING QO'LLANISHI

Hayitmurodova Marjona.

**Samarqand Davlat Universiteti Kattaqo'rg'on filiali Pedagogika va tillarni o'qitish
fakulteti Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi 2-kurs talabasi.**

E – mail: hayitmurodovamarjona61@gmail.com

Ilmiy rahbar: Anvar Sobirov Kuvandikovich

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7924126>

Annotatsiya: Mazkur maqolada nasriy va nazmiy asarlar barqaror birikmalar asosida tahlil qilingan va ma'nolari izohlangan. Frazeologizmlarni tahlil qilishdan maqsad va ularning uslubiy vazifalari to'liq yoritilgan.

Kalit so'zlar: frazeologizm, nasriy, nazm, uslubiy vazifa, ilmiy tadqiqot,

Kirish

Lirik va epik asarlarni frazeologik jihatdan tahlil qilishda ularning asarga qanday ma'no yuklayotganiga e'tibor qaratish kerak. Badiiy asarlarda obrazlarning harakterini ochib berish uchun frazemalarning o'rni katta. Bundan tashqari frazema asar personajlari nutqining ta'sirchanligini, so'z tejash orqali fikrni aniq va uslubiy bo'yoqlar bilan yetkazib berishni ta'minlaydi. Bilamizki, ikki yoki undan ortiq so'zlarning o'zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga shu ko'rinishda kiritilgan til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi.

Tadqiqot materiallari va metodologiya

Ko'plab tadqiqotchilar frazeologizmlarni ilmiy tadqiqotlari davomida o'rganib chiqqan. Xususan, frazeologiya nazariyasiga dastlab fransuz tilshunosi Sh. Ball asos slogan va uning mohiyatiga shunday ta'rif bergan: "Tilga mustahkam kirib kelgan birikmalar frazeologik burilishlar deyiladi". Tadqiqotchilar V.L. Arxangelskiy, S.G. Gavrin, V.N. Teliya frazeologik birlikni so'z bilan metafora, ekvivalentlik va sinonimiya kabi ikkilamchi belgilari bilan ajralib turadigan lisoniy birlik deb belgilaydi. V.V. Vinogradov frazeologik aylanishning eng muhim belgisi sifatida uning so'z bilan tengligi va sinonimligini ko'rsatadi. O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarni Sh. Rahmatullayev, I. Qo'chqortoyev, M. Sodiqova, A. Rafiyev kabi olimlar ishlarida keng o'rgangan. Xususan, Shavkat Rahmatullayev "Nutqimiz ko'rki" kitobida frazeologik birliklarning muhim belgi-xususiyatlari qo'shma so'zga, erkin bog'lanmaga, to'g'ri ma'noli turg'un bog'lanmaga, analitik formaga, maqol va aforizm kabi hodisalarga qiyosan tahlil qilingan. Iboralarning semantik birlik sifatida so'zga ekvivalentligi ulardagi polisemiya, sinonimiya, antonimiya, omonimiya hodisalari asosida isbotlangan.

Tadqiqot natijalari

Nasr-vazn va qofiya singari she'riyatga xos unsurlarga ega bo'lmagan yozma nutq mahsuli. Yevropa xalqlari adabiyotida bo'lganidek, sharq xalqlari adabiyotida ham nasr yozma nutq shakli sifatida she'riyatga nisbatan kechroq paydo bo'lgan. Nazm o'z ritmiga ega bo'lgan, asosan sintaktik bo'linish bilan mos kelmaydigan mutanosib bo'laklarga aniq bo'linish orqali yaratiladi. Dastlab she'riyatni so'z san'ati deb atashgan, chunki unda hozirgi zamongacha she'riy va unga yaqin ritmik-intonatsion shakllar hukmronlik qilgan. Barcha badiiy bo'lmagan og'izaki asarlar nasr deb nomlangan: falsafiy, ilmiy, publitsistik, information notiqlik va boshqalar. Biz tahlil qilayotgan frazemalar nasriy asarlardagi voqealikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko'z o'ngida aniq va ravshan tasvirlashdagi ahamiyati katta. Shu

o'rinda adibimiz Oybek ham "Quyosh qoraymas" romanida iboralardan samarali foydalangan. Barcha birliklar juda topib qo'yilgan o'sha vaziyat va bo'lib o'tayotgan voqeaga. Bundan tashqari Abdulla Qahhor ham bir necha hikoyalarida, jumladan, "Dahshat", "O'g'ri" hikoyalarida, O'tkir Hoshimov "Dunyoning ishlari" qissasida iboralardan mohirona foydalangan. Bu kabi iboralar asar mazmunini teranlashtirishga yordam beradi. Yozuvchilar tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni qo'llash bilan birga qahramonlarning ruhiy holatini hayot tarziga moslab o'zgartiradi, qayta ishlaydi. Shu tarzda iboralar sayqallanib yangi ma'nolari bilan, sinonim, antonimlari bilan to'yinib boradi. Iboralar ko'chma ma'no ifodalaydigan so'zlar qo'shilmasidan iboratdir. Ular badiiy matnga estetik zavq beradi. Kitobxon ulardan o'ziga emotsiya oladi. Yozuvchilar frazemalardan qancha ko'p foydalansa qiymati ham shuncha oshib boradi.

Muhokama

Ushbu maqolada nasriy va nazmiy asarlarda qo'llangan iboralarni tahlilga tortilgan. Har bir yozuvchining frazeologizmlardan foydalanish uslubi va yo'nalishlari bo'ladi. Jumladan, Ernest Seton-Tompsonning "Yovvoyi yo'rg'a" hikoyasida qo'llangan iboralarni to'plab o'rganish orqali yozuvchining o'ziga xos uslubi tahlil qilindi.

Ko'ngil qo'ymoq-sevish hissiga erk bermoq. Sinonimi: ko'ngil bog'lamoq; muhabbat qo'ymoq. O'xshashi: mehr qo'ymoq.

Ko'ngli bormadi-kimning kimni yoki nimani nima qilishga. Sinonimi: ko'zi qiymadi, ko'ngli bo'lmadi.

Dog'da qolmoq-biror narsaning kutilganicha bo'lmagani tufayli o'kindi, alamzada bo'ldi.

Ko'zi tushdi-behosdan kutilmaganda ko'rdi.

Dong'l ketdi-ma'lum-mashhur bo'ldi.

She'riy asarlarda esa iboralar ma'lum bir vazn va qofiyaga solingan holda qo'llanadi. Bir necha so'zlar birikmasi ifodalaydigan ma'noni ta'sir doirasi keng bo'lgan qotib qolgan birikma anglatayotgan ma'no bilan o'rinini almashtirilsa uslubiy qiymati oshadi. She'riyat olamida o'z yo'nalishi va uslubi bilan kitobxonlar, she'riyat muxlislari qalbidan joy olib kelayotgan ijodkorlardan biri Shavkat Rahmon va Usmon A'zim, Rauf Parfi kabi shoirlarimiz ijodida frazemalarni qo'llashda o'ziga xos mahoratni ko'rishimiz mumkin. Ular she'rlarida har bitta iboraning ma'nosini shunchalik mohirlik bilan singdirib yuborganki, o'qigan kitobxonning ko'z o'ngida uning ruhiy holatini jonlantirmay qo'ymaydi. Jumladan Rauf Parfining "Baxt va tashvish" she'ridan ushbu parchani olaylik:

Baxt deb

Sen chekkan tashvishga

O'g'ling arzirmi,

Uza bilarmanmi bir zamon

Uzish mumkin bo'lmagan qarzimni?!

Ushbu she'rda "tashvish chekmoq" iborasining o'rniga "xavotir bo'ldi" erkin birikmasini qo'llasa bo'lar edi, ammo u she'rning ta'sir doirasini yetarli darajada kengaytirib berolmas edi. Bundan tashqari yumor va satirani yaratishda ham frazeologizmlar alohida o'ringa ega. BU esa ularning ichki tabiati bilan bog'liq, chunki ko'pgina frazeologik birliklarning semantik tarkibida hazil, mazax, kesatiq, piching singari ma'no nozikliklari bo'ladi. Bu xususiyatga Usmon A'zimning "Gulim" she'rida qo'llangan iboralarni ham misol qilsa bo'ladi.

Derazaga boqsam...

Gul ko'rinsa...

Yorilib ketmaydimi

Yuragim?

Bunda "yorilib ketmaydimi yuragim" iborasi "qo'rqmoq" so'ziga sinonim qilib hazil-mutoyiba ma'nosida kiritilgan. Abdulla Qahhorning "Mahalla" hikoyasida milliylikni ta'minlovchi frazeologizmlardan unumli foydalangan. Undagi frazemalarni konseptual tahlil qilganimizda ularning ot va fe'l turkumiga xosligi bilan xarakterlanishini ko'rsatadi.

Hikmat buvaning yurak-bag'rini sug'urib oldi. [1,158].

Izohi: 1. qattiq iztirobga solmoq 2. betoqat bo'ldi. Konsept: ezilmoq, siqilmoq, o'ylamoq.

Shuningdek Fitrat dramalarida ham ibora ishtirok etgan o'rinlar uchraydi. Uning "Arslon" dramasida lingvokultrologik ma'no tashuvchi frazemalar mavjud: "sadag'angiz ketay", "tuzini yemoq"

Abdulla Oripovning "Onajon" she'ridagi quyidagi parchada "Bag'ri ezilmoq" iborasi qo'llangan:

Afsus o'zing erta ketding erta ketding olamdan,

Ukalarim bag'rim ezar ajraldik deb onamdan.

Buni biz Ideografik lug'atlarda berilgan inson ruhiy holatini ifodalovchi "ruhan azoblanmoq" ma'nosini beruvchi frazeologik birlik sifatida tasnif qilamiz.

Shu kabi yana bir qancha ijodkorlarimiz ham frazeologik birliklardan o'z asarlarida mohirlik va ijodkorlik bilan foydalanganlar. Shu asnoda iboralarning nutqimiz ko'rki ekanligini asoslab o'tganlar.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, frazeologizmlar muhim lingvistik birlik bo'lib, ular boshqa birliklardan strukturaning o'tkazmasligi bilan ajralib turadi. Iboralar nafaqat so'zlashuvda, balki badiiy adabiyot va publitsistikada ham qo'llash yo'llari xilma-xil. Tilimizning frazeologizm qatlami doimiy ravishda yangi frazalar bilan boyib boradi. Ular esa millatimizning madaniy olamini, xarakter-xususiyatini namoyon etib turuvchi muhim omildir. Mazkur tadqiqot davomida lirik va epik asarlardagi frazeologik birliklarning uslubiy vazifasini, ma'no jihatini va olimlarimizning u haqidagi turli nazariy qarashlarini ko'rib chiqdik.

References:

1. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati Sh. Rahmatullayev. "O'qituvchi" T. 1978
2. Ernest Seton-Tompson. Yovvoyi yo'rg'a: hikoya. Darslik qo'llanma. — T.: "Sharq", 2017. — 342 b.
3. Qo'ziyoyeva Go'zal Saidrasul qizi. (2022) "Badiiy asarda frazemalarning ishlatilishi va lingvistik tahlil (Oybekning "Quyosh qoraymas" romani misolida) SCIENCE AND INNOVATION 474-475. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6639433>
4. Fitrat, Abdurauf. Tanlangan asarlar. III JILD. — T.: Ma'naviyat, 2003. 179-bet
5. Abdulla Oripov. Yillar armoni: she'riy to'plam. T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot. 1984. — 560 b.
6. Abdulla Qahhor. Anor: qissa va hikoyalar. Abdulla Qahhor. — T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005. — 200 b.